

## ABDULLA QODIRIY IJODIDA IJTIMOIIY MUAMMOLARNING IFODALANISHI

**H. Jo‘rayev**

filologiya fanlari doktori, FarDU professori

**Nabiyeva Nigora Nodirjon qizi**

FarDU magistri

### Annotatsiya

Mazkur maqolada Abdulla Qodiriy ijodida maishiy hayot tasvirlagan she‘rlari, ulardagi tasvir obyekti, “To‘y”, “Ahvolimiz”, “Fikr aylag‘il” kabi jamiyat muammolari yoritilgan, mazmundor she‘rlar haqida ma‘lumotlar berilgan.

Tayanch atamalar: ijtimoiy mavzular, realistik asar

Abdulla Qodiriyning publistikadadagi ilk qadami 1914-yil 1-aprel sanasida “Sadoyi Turkuston” gazetasida “Yangi masjid va maktab” nomi bilan ko‘riladi. Ko‘p o‘tmay Qodiriy “To‘y”, “Ahvolimiz”, “Fikr aylag‘il” kabi jamiyat muammolari yoritilgan, mazmundor she‘rlar yozadi. A.Qodiriy she‘rlarini ikki toifaga ajratish mumkin. Ulardan birinchisi – “To‘y”, “Ahvolimiz”, “Millatimga bir qaror”, “Fikr aylag‘il” va “Pildir pis...” kabi mustaqil she‘riy asarlar bo‘lsa, ikkinchisi – asosan “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” va “Obid ketmon” kabi epik asarlari tarkibidagi nazm namunalaridir<sup>1</sup>. Abdulla Qodiriyning “To‘y” she‘ri hajviy yo‘nalishda yozilgan bo‘lsa-da, mazmun- mohiyati ko‘ra jiddiy va dolzarb mavzu qalamga olingan. Qadimdan go‘zal urf-odatimiz bo‘lgan, qarindosh-urug‘, mahalla-ko‘y, oshna-og‘ayni diydoriga, quvonchiga sabab bo‘ladigan marosim odamlarning kimo‘zarga, yoz-u qish davom etadigan to‘ylari oxir xalqni yakson etishi baxtga emas baxtsizlikka olib borishi tasvirlanadi. She‘rda adolatsiz mustamlaka siyosatidan jabirdiyda bo‘lgan, loqaydlik, boqmandalik, ilimsizlik, hurofotga botgan xalqni sha‘riatda yo‘q, “kori ma‘jus”, “kori shayton” to‘ylardan qaytaradi. Zamonada besh kunlab qilingan to‘ylardan so‘ng, behisob mulk ketgandidan, endigi navbat “tandagi jon”iga yetishidan ogoh etadi. Bu mavzu shaxs va jamiyatning muammosi o‘laroq keyinchalik yozilgan “Baxtsiz kuyov” dramasida ham keng bayon etiladi. “Ahvolimiz” she‘rida Turkiston xalqining g‘aflatda

---

<sup>1</sup> Sobir Mirvaliyev, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi «O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati» gazetasining 2003 yil 47-sonidan olindi. Abdulla Qodiriy she‘riyati

qolgan, chirkin turmush tarzi, odob- axloq chegaralari buzilgan, ilmsizlik, ko'knori chekish, bachchabozlik kabi illatlar, ilm ahlini dahriyga chiqaruvchi xalq ochiqchasiga tanqid qilinadi. Millat kelajagi bo'lgan yoshlarga, ziyoliylarni "uxlagan" xalqni uyg'otishiga umid bog'aydi. "Fikr aylag'il", "Millatimga bir qaror" she'rlari bilan zamonadan ancha ildamlab ketdi. She'rdagi keltirilgan fikrlar orginalligi va o'sha davr kishilari uchun yuksak taffakur, yangicha dunyoqarash bilan yozilganligi sezilib turadi.

A.Qodiriy orzusi millatni qoloq odatlardan holi shariat bo'yicha muqaddas islom dini targ'ib etgan baxtli hayot kechirishini istaydi. Qodiriyning "Uloqda" hikoyasi realistik hikoya talablariga javob beradi. Realistik hikoyada qalamga olinadigan real borliq hamda uning badiiy jihatdan hayotning butun murakkabliklari bilan yoritilishi asarda kontrast usulidan ustalik bilan foydalanilganligi bilan "Baxtsiz kuyov", "Juvonboz" tildan keskin farq qiladi. Hikoyada pand-nasihati ruhidan qochib, bola Turg'uning nigohi bilan tevarak- atroni chizadi voqeylikni ko'rsatadi. Umarali Normatov bu asar haqida "Juvonboz"dagi quruq tildan qochadi deydi va yozuvchi Qodiriy "Eski shahar havaskorlariga", "Bizda teatri ishining borishi" maqolalari "Bozor surishtirmaydir" feletoni orqali Turkistonda qo'yilayotgan dramalarning kamchiliklarini hamda tavsiyalarini ko'rsatib o'tadi. 1919-yil "Ishtirokiyun" gazetasidagi "Bizda teatr ishining borishi" maqolasida "Teatr turmushdagi yetishmagan va ortiqcha yerlarni ko'z oldimizga mujassam etib ko'rsatuvchi bir oynadir. Ish shundog' ekan biz ham teatrimizni ko'rganda, turmushimizning aksini ko'rmagimiz kerakdir."<sup>1</sup>deya teatr mohiyati va unda qo'yiladigan asarlar husuiyati haqida yuqoridagi fikrlarni bildiradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. D Yuldasheva, G Abdumuminova. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda nutq madaniyatini shakllantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning pedagogik asoslari. Центральноазиатский журнал образования и инноваций 2 (3 Part 2), 8-11
- 2.Yuldasheva D.M. Pedagogical Features Of Mental Development Of Preschool Children. Solid State Technology. Volume: 63 Issue:6 Publication Year:2020. 14221-14225
- 3.Yuldasheva D.M. Anthropocentric Approach To Children's Speech Study. Section 2: Linguistic Theory, Applied Linguistics. Collection Of Materials Of The International Online Conference. www.Research-Support-Center.Som 2020.92-95
- 4.Yuldasheva D.M. The Methods Of Speech Development Of Preschool Children. Epra

<sup>1</sup> Abdulla Qodiriy Diyori bakir 3tom Toshkent Info Capital Group.2017 98 bet

Internashinal Jurnal Of Multidissiplinary Researsh(Ijmr). Impast Fastor:  
7.6.11.November.

5.Юлдашева Д.М. [ИСПОЛЬЗОВАНИЕ зоонимов в колыбельной песне-«алла», как аспект этнолингвистики.](#) cyberleninka.ru

6.D Yuldasheva. [Anthropocentric approach to children's speech study.](#)  
Конференции.

7.YD Махамадалиевна, МХ Мадаминовна. [Gnoseological Substantiation of Cognitive Development Children.](#) International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology 2 (4), 7-11

8. YD Махамадалиевна. [Use Of Presidential Names In Uzbek Children's Texts.](#)  
gospodarka i innowacje. 22.

10.ДМ Юлдашева. [Синтактик такрорларнинг бадий-эстетик имкониятлари.](#)  
Международный журнал/ Искусство слова.